



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 12-dekabr, № 260 (9155)

Juma

Saytimga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



STRATEGIK SHERIKLIK, DO'STLIK VA YAXSHI QO'SHNICHILIK MUNOSABATLARI YANADA KENGAYADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
11-dekabr kuni amaliy tashrif bilan Ashxobod shahriga keldi.



Poytaxt aeroportida davlatimiz rahbarini Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rinbosari Xojamirat Geldimiradov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

O'zbekiston Prezidenti Ashxobod shahriga kelgach, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan uchrashuv o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston yetakchisini tarixiy sana — doimiy betaraflikning o'ttiz yilligi bilan samimiy tabrikladi hamda ushbu muhim voqeaqa bag'ishlab ertaga o'tkaziladigan xalqaro forum ishiga muvaffaqiyatlar tiladi.

Suhbat davomida O'zbekiston — Turkmaniston strategik sheriklik, do'stlik va yaxshi qo'shniichilik munosabatlarini, birinchi navbatda, siyosiy, parlamentlararo, savdo-iqtisodiy, madaniy hamda gumanitar sohalarida

yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston va Turkmaniston yetakchilari mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalarni ham ko'rib chiqdilar.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan uchrashuv o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidenti va qardosh xalqini mamlakat betarafliigi e'lon qilinganining 30 yilligi, ushbu muhim sanaga bag'ishlangan xalqaro forum yuqori saviyada tashkil etilgani hamda 2025-yil "Xalqaro tinchlik va ishonch yili" deb e'lon qilingani bilan samimiy tabrikladi.

Turkmaniston Prezidentining yaqinda bo'lib o'tgan O'zbekistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston

— Turkmaniston strategik sherikligini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash qariyb bir milliard dollarga yetdi. "Shovot — Toshovuz" chegaraoldi savdo zonasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Yuk tashish hajmi 30 foizga oshdi, jumladan, Turkmanboshi porti orqali yetkazib berish faollashdi. Gumanitar va hududlararo almashinuvlar davom etmoqda.

Hukumatlararo komissiya, Ishbilarmonlar kengashi va Hududlar forumining bo'lajak yig'ilishlarida savdo hajmini karrasiga oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari, xususan, energetika, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa sohalarida qo'shma loyihalarni samarali ilgari surish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish muhimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O'ZBEKISTON VA PARAGVAY O'RTASIDAGI AMALIY HAMKORLIK RIVOJIDA YANGI DAVR

Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya
11-dekabr kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.



Oliy martabali mehmonni "Toshkent-Humo" xalqaro aeroportida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari Jamshid Qo'chqorov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Ko'ksaroy qarorgohida Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penyani kutib olish marosimi bo'ldi.

Shu yerda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokara o'tkazdilar.

O'zbekiston bilan Paragvay o'rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash istiqbollari muhokama qilindi.

O'zbekiston yetakchisi Paragvay rahbarini samimiy qutlar ekan, Lotin Amerikasi davlati Prezidenti tomonidan O'zbekistonga ilk bor amalga oshirilayotgan ushbu tashrif tarixiy ahamiyatga ega ekanini qayd etdi. Mazkur sammit ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirishda yangi davrni boshlab berishi ta'kidlandi.

Muzokaralarda ikki tomonlama

hamkorlikni, jumladan, savdo-iqtisodiyot, madaniy-gumanitar, ta'lim va boshqa sohalarida kengaytirishning ustuvor yo'nalishlari muhokama qilindi.

O'zaro savdoni ko'paytirish, ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va kimyo sanoati, raqamlashtirish, turizm hamda sport sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida tomonlar siyosiy muloqotni yanada rivojlantirish va o'zaro manfaatli sohalarida amaliy hamkorlikni chuqurlashtirishga tayyorligini tasdiqladilar.

Bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya Qo'shma bayonotni imzoladilar.

Shuningdek, yetakchilar huzurida O'zbekistonning JSTga qo'shilishi doirasida bozorga kirish masalalari bo'yicha ikki

tomonlama muzokaralar yakunlangani to'g'risidagi bayonnoma hamda Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi siyosiy maslahatlashuv mexanizmini yo'lga qo'yish to'g'risida o'zaro anglashuv memorandumini imzolash marosimi o'tkazildi.

O'zbekiston bilan Paragvay o'rtasida oliy darajadagi muzokaralar yakunlangach, Ko'ksaroy qarorgohida daraxt ekish marosimi bo'lib o'tdi.

Mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik hamda sherikchilikni mustahkamlashga, ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi sahifa ochishga o'zaro qat'iy intilishning ramzi sifatida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Santyago Penya birgalikda Faxriy mehmonlar xiyobonida daraxt ekdilar.

Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penyaning O'zbekistonga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

Z. JONIBEKOV,
O'zA muxbiri.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH — USTUVOR VAZIFA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva "BMT-ayollar" tuzilmasining Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha mintaqaviy direktori Belen Sans Luke bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqot

Suhbat chog'ida O'zbekistonning "BMT-ayollar" tuzilmasi bilan hamkorligi, shuningdek, mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash hamda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha keyingi qadamlar muhokama etildi.

Mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Xususan, barcha sohada gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan tizimli ishlar muhokama qilindi. Jumladan, sud-huquq sohasida ham ayollar faolligini oshirish, gender tenglikni ta'minlashda faol bo'lgan tashkilot va idoralarni qo'llab-quvvatlash yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv chog'ida sheriklikni mustahkamlash va qo'shma loyihalarni kengaytirishda muhim qadam bo'lgan Toshkent shahrida "BMT-ayollar" tuzilmasi ofisining ochilishiga yuqori baho berildi.

BMT Xotin-qizlar maqomi bo'yicha komissiyasining 70-sessiyasida ishtirok etish, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqotida hamkorlik masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv yakunida tomonlar sheriklikni yanada mustahkamlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va gender tenglikni rivojlantirishga qaratilgan qo'shma tashabbuslarni amalga oshirishga sodiqligini bildirdi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

“O'zbekiston: uchinchi Renessans — taraqqiyot konsepti”:

BUGUNGI SIYOSATIMIZNING IJOBIY BAHOSI

Poytaxtimizda pokistonlik adib va jurnalist Muhammad Abbos Xonning "O'zbekiston: uchinchi Renessans — taraqqiyot konsepti" nomli kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi.

Taqdimot

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, vazirliklar, idoralar, mamlakatimizdagi diplomatik korpus va nodavlat notijorat tashkilotlar

vakillari, Pokiston Islom Respublikasi Prezidentining Matbuot kotibi va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik bo'yicha maslahatchisi Murtazo Solangi, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vazirining savdo va sanoat masalalari bo'yicha koordinatori

Rana Ixsaan Afzal Xon hamda boshqa yuqori martabali shaxslar, shuningdek, jurnalistlar, ijodkorlar qatnashdi.

Anjumanda so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Xayriddin Sultonov ishtirokchilar, xususan, pokistonlik mehmonlarni qutlab, ikki davlat orasidagi aloqalar mustahkamlanib borayotganini e'tirof etdi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

TA'SIRCHAN PARLAMENT NAZORATI — ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUHIM OMIL

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda parlament nazorati faoliyatiga doir masalalar muhokama qilindi. Deputatlar kun tartibidagi eshituvlarning dolzarbligiga e'tibor qaratib, har bir yo'nalish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini, taklif va tavsiyalarini bildirib o'tishdi.

Aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda qanday qulayliklar yaratilmoqda?

Majlisda Adliya vaziri A. Toshqulovning "Davlat xizmatlarini ko'rsatishda korruptsiyaviy holatlar kelib chiqishining oldini olish hamda aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida qo'shimcha qulayliklar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshittildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan isloh qilish, sohada byurokratik to'siqlarni qisqartirish, davlat idoralari faoliyatini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali inson omilini kamaytirish hamda shaffoflikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, respublikamizning 208 ta tuman va shaharida davlat xizmatlari markazlari, shuningdek, 138 ta olis

va tog'li hududdagi filiallari faoliyat yuritmoqda.

Davlat xizmatlari markazlari xizmatlaridan foydalanish darajasi yildan-yilga o'sib boryapti. Jumladan, bugungi kunda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 770 dan ortiq, davlat xizmatlari markazlari orqali esa 500 dan ziyod xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Ayni vaqtda kuniga o'rta hisobda 100 mingga yaqin fuqarolar mazkur markazlarga murojaat qilmoqda. Joriy yilning 9 oyida ushbu markazlar tomonidan 19,7 milliondan ziyod xizmatlar ko'rsatilib, o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan xizmatlar soni 3,5



Ishonch va sheriklikni mustahkamlash:

O'ZBEKISTON XALQARO TINCHLIK TASHABBUSLARIDA FAOL ISHTIROK ETMOQDA

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-dekabr kuni Ashxobodga amaliy tashrif bilan keldi. Davlatimiz rahbari Turkmanistonning doimiy betaraflik e'lon qilinganining 30 yilligi, Xalqaro betaraflik kuni hamda 2025-yilni "Xalqaro tinchlik va ishonch yili" deb e'lon qilinganiga bag'ishlangan xalqaro forumda ishtirok etadi.

Hamjihatlik

Ushbu muhim tadbir davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlash masalalarini muhokama qilish, profilaktik diplomatiya sohasida tajriba almashish uchun izlanuvchan platforma yaratadi.

Forum BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasi rezolyutsiyasi bilan e'lon qilingan Xalqaro tinchlik va ishonch yilining kulminatsion voqeasidir. Turkmaniston tomonidan 86 davlat hammuallifligida tayyorlangan ushbu tashabbus siyosiy muloqotni mustahkamlash, mamlakatlar o'rtasida o'zaro tushunish va ishonchni ilgari surish, global tinchlik va totuvlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qildi.

Shu yil yanvar oyida

imzolangan Turkmaniston faoliyati konsepsiyasida "Tinchlik va ishonch yili"ga "Muloqot — tinchlik garovi" yangi xalqaro munosabatlar falsafasini amalga oshirish uchun amaliy maydon sifatida qaralmoqda.

Tinchlik va muloqot madaniyatini ilgari surish, xalqaro munosabatlarda betaraflik rolini kuchaytirish, preventiv diplomatiya va vositachilikni rivojlantirish, davlatlar o'rtasida ishonchning yangi mexanizmlarini yaratish, tinchlik va o'zaro ishonchsiz barqaror rivojlanish mumkin emasligi to'g'risida global tushunchani shakllantirish Xalqaro tinchlik va ishonch yilining asosiy maqsadlari etib belgilandi.



Ishonch va sheriklikni mustahkamlash:

OʻZBEKISTON XALQARO TINCHLIK TASHABBUSLARIDA FAOL ISHTIROK ETMOQDA

Ushbu maqsadlarning amalga oshirilishi ishonch va masʼuliyatga asoslangan koʻp tomonlama muloqotning yangi shakllarini institutsionallashtirish uchun imkoniyatlar ochdi. Shuningdek, davlatlar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining qoʻshma tinchlik tashabbuslarida faol ishtirokini ragʻbatlantirdi.

Bu borada Turkmanistonning 1995-yilda BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi bilan tan olingan hamda 2015 va 2025-yillardagi rezolyutsiyalari bilan tasdiqlangan doimiy betaraflik siyosati alohida ahamiyatga ega. Betaraflik mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan boʻlib, Turkmaniston tashqi siyosiy oʻziga xosligining muhim elementiga hamda mintaqaviy va xalqaro tinchlikka qoʻshayotgan hissasining asosiga aylandi. Betaraflikning asosiy tamoyillari harbiy-siyosiy ittifoqlarga kirishdan bosh tortish, qurolli mojarolarda ishtirok etmaslik, xalqaro nizolarni hal qilishning diplomatik usullariga ustuvorlik berishdan iborat.

Betaraflikning amalda roʻyobga chiqishi barcha davlatlar bilan teng

huquqlilik, oʻzaro hurmat va ichki ishlariga aralashtirish tamoyillari asosida barqaror diplomatik munosabatlarni qoʻllab-quvvatlash, qoʻshnilar va yirik davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar bilan faol ish olib borishda namoyon boʻlmoqda. Ashxoboddagi BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya boʻyicha mintaqaviy markazi faoliyati, Turkmanistonning BMTning barqaror rivojlanish, suv va energetika xavfsizligi, ekologiya va iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikka qaratilgan gumanitar, ekologik va ijtimoiy tashabbuslarida ishtirok etishi bunga yaqqol misoldir.

Oʻzbekiston koʻp vektorli tashqi siyosatni rivojlantirib, konstruktiv mintaqaviy muloqotni qoʻllab-quvvatlab, Markaziy Osiyoda barqarorlik asosi sifatida tinchlik va ishonchni mustahkamlashga alohida eʼtibor qaratmoqda. Mamlakatimiz strategiyasi ochiqlik, yaxshi qoʻshnichilik, oʻzaro hurmat va hamkorlikning barqaror shakllarini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro tashabbuslarda faol ishtirok etish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu

yondashuvlar Xalqaro tinchlik va ishonch yili maqsadlariga toʻliq mos keladi hamda mintaqada xavfsizlik va barqarorlikning yagona makonini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston – Turkmaniston munosabatlari ishonch va oʻzaro hurmatga asoslangan muvaffaqiyatli hamkorlikning yorqin namunasidir. Ular mintaqada barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol oʻynagan Turkmanistonning umumeʼtirof etilgan betarafligini, Oʻzbekistonning hamkorlikni chuqurlashtirish, iqtisodiy, gumanitar aloqalarni rivojlantirish, madaniy aloqalar va transport infratuzilmasini mustahkamlashga qaratilgan faol hamda pragmatik pozitsiyasini hisobga olgan holda ishlab chiqilmoqda. Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning yaqinda Oʻzbekistonga amalda oshirgan davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlik formatini kengaytirish, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalaridagi yutuqlarni mustahkamlash imkonini berdi. Tashrif yakunida yetakchilar Qoʻshma bayonot, savdo, qishloq xoʻjaligi, sogʻliqni saqlash, transport, energetika, yuridik va madaniy sohalarini qamrab

olgan qator davlatlararo bitim va hamkorlik dasturlarini imzoladi. Chegaraoldi hududlarning iqtisodiy integratsiyasi va mamlakatlar oʻrtasidagi tovar ayirboshlash hajmini oshirish uchun qoʻshimcha imkoniyatlar yaratadigan maʼmuriy, bojxona va xizmat koʻrsatish infratuzilmalari bilan jihozlangan “Shovot – Toshovuz” chegaraoldi savdo zonasini ishga tushirishga alohida eʼtibor qaratildi.

Shubhasiz, Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ashxobodda boʻlib oʻtadigan xalqaro forumdagi ishtiroki mamlakatimizning Markaziy Osiyoda va xalqaro maydonda tinchlik, ishonch va barqaror hamkorlikni mustahkamlashga sodiqligining yana bir tasdiqi boʻladi. Forum Oʻzbekistonning ishonch va yaxshi qoʻshnichilik gʻoyalarni ilgari surishdagi faol rolini namoyish etish, mintaqa barqarorligi va farovonligi yoʻlida loyiha va tashabbuslarni birgalikda amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratib, Oʻzbekiston – Turkmaniston sherikligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA.

Uchrashuv

PARLAMENTLARARO ALOQALAR ISTIQBOLLARI

Kuni kecha Oliy Majlis Senati Raisining birinchi oʻrinbosari Sodiq Safoyev Braziliya Federativ Respublikasi tashqi ishlar vaziri oʻrinbosari Syuzan Kleebank bilan uchrashdi.

Suhbat chogʻida Oʻzbekiston – Braziliya munosabatlari va parlamentlararo hamkorlikning istiqbollari muhokama qilindi. Uchrashuvda mamlakatimizda olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlar, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya muhiti hamda kadrlar salohiyati yuqori baholandi.

Siyosiy maslahatlashuvlar, savdo-iqtisodiy hamkorlik, investitsiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamohanglik masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Oliy Majlisda tashkil etilgan

Braziliya bilan parlamentlararo doʻstlik guruhi faoliyati va Braziliya parlamentida Oʻzbekiston bilan doʻstlik guruhi yoʻlga qoʻyish uchun hamkorlik qilish yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida parlamentlararo hamkorlikni yanada faollashtirish, parlament aʼzolari oʻrtasida onlayn uchrashuvlar tashkil etish hamda Braziliya Milliy kongressi delegatsiyasining Oʻzbekistonga tashrifini uyushtirishga kelishib olindi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

Raqamli makonda ayollar xavfsizligi

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi raisi Ozgul Qozixonova poytaxtimizda ayollarga nisbatan raqamli zoʻravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishga bagʻishlangan davra suhbatida ishtirok etdi.

Davra suhbat

Tadbir joriy yilda mamlakatimizda oʻtkazilgan “Gender zoʻravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakatlar” kampaniyasining yakuniy bosqichi sifatida Inson huquqlari kuni munosabati bilan tashkil qilindi.

Unda qonunchilik bazasini mustahkamlash, raqamli xavf tahlili va monitoring tizimlarini joriy etish boʻyicha ustuvor vazifalar muhokama markazida boʻldi.

Senator raqamli makonda ayollar

xavfsizligini taʼminlash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri ekanini taʼkidladi.

Tadbir qatnashchilari jabrlanganlarga koʻmak berish tizimini yanada takomillashtirish, monitoring va baholash vositalarini integratsiya qilish, gender tenglikni ilgari surishda davlat organlari, xususiy sektor, OAV va fuqarolik jamiyati institutlarining oʻzaro hamkorligini kengaytirish masalalariga alohida eʼtibor qaratdi.

“Xalq soʻzi”.

Senator va yoshlar

KELAJAK EGALARI BILAN OCHIQ MULOQOT

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasi raisi Alisher Aʼzamxoʻjayev va senator Pokiza Ahmedjonova Guliston davlat universitetida Sirdaryo viloyatining faol yoshlari bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Tadbirda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar, yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlari, sifatlari taʼlim berish, xorijida oʻqish va malaka oshirish imkoniyatlari, shuningdek, mamlakatimizning xalqaro nufuzi hamda tashqi iqtisodiy aloqalari toʻgʻrisida batafsil maʼlumot taqdim etildi.

Uchrashuv davomida Senat aʼzolari va Sirdaryo yoshlari

oʻrtasidagi muloqotni kengaytirish, yoshlarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan loyihalar, sport, madaniyat va ijod maskanlarini rivojlantirish, xorijiy tillarni chuqur oʻrganish, sunʼiy intellekt hamda zamonaviy kasblarga yoʻnaltirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar ham muhokama markazida boʻldi.

Muloqotda ishtirok etgan yoshlar oʻzlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldi va oʻz navbatida, taklif hamda tashabbuslarini bildirdi.

“Xalq soʻzi”.

Senat qoʻmitalarida



XALQ MANFAATLARIGA XIZMAT QILUVCHI QONUNLAR

Oliy Majlis Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasining majlisida “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun dastlabki tarzda koʻrib chiqildi.

Muhokamada taʼkidlanganidek, hukumat aʼzosi hamda hakim lavozimiga nomzodlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish rejasini taqdim etish, sudlari ishini yanada maqbullashtirish, shuningdek, ayrim tadbirkorlik subyektlari tomonidan investitsiya bitimi boʻyicha majburiyatlarni bajarmaslik va yerdan qonunga xilof ravishda foydalanish holatlarining oldini olish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Bu esa ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritishni taqozo qilayotir.

Shu bois senatorlar tomonidan muhokama qilingan ushbu qonun bilan “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi, “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti toʻgʻrisida”gi hamda “Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi toʻgʻrisida”gi qonunlarga oʻzgartirishlar kiritilib, hukumat aʼzosi va hakim lavozimiga nomzodlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish rejasini taqdim etilishini belgilovchi qoʻshimcha va oʻzgartirish kiritilyapti.

Shuningdek, Fuqarolik protsessual hamda Iqtisodiy protsessual kodekslarga, “Davlat boji toʻgʻrisida”gi Qonunga fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini soddalashtirilgan tartibda koʻrib chiqish uchun asos boʻluvchi daʼvoning bahosini oshirish koʻzda tutilmoqda. Bundan tashqari, investitsiya bitimi boʻyicha majburiyatlarini bajarmagan tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy sudlarga kiritilgan daʼvolari yuzasidan maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarining direksiyalari davlat bojini toʻlashdan ozod etilmoqda.

Ushbu qonunning qabul qilinishi Vazirlar Mahkamasi aʼzolari hamda hokimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi masʼuliyati va hamkorligini oshirishga, odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga, investitsiya muhitini yaxshilab, yerdan oqilona va samarali foydalanishini taʼminlashga xizmat qilishi senatorlar tomonidan aytiladi.

Shundan soʻng majlis ishtirokchilari Energetika hamda Transport vazirliklarida Oʻzbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Qonunining ijrosi holatini muhokama

qildi.

Qayd etilishicha, soʻnggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlar hamda modernizatsiya jarayonida energetika va transport tizimlari milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini taʼminlovchi asosiy omillardan biriga aylandi.

Energetika va Transport vazirliklari tizimida zikr etilgan qonun ijrosi boʻyicha qator ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalariga koʻra, Energetika vazirligi 86 ball (yaxshi) va Transport vazirligi 79 ball (qoniqarli) olgan.

Mazkur vazirliklar faoliyatining ochiqligini taʼminlash hamda sohada amalga oshirilgan ishlarni keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida yuzdan ortiq targʻibot tadbirlari oʻtkazilib, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy veb-saytlarida 1000 dan ortiq maʼlumotlar eʼlon qilingan.

“Korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan oʻtkazish tartibi takomillashtirilgan. Raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etish hamda inson omilini kamaytirish orqali sohalarida shaffoflik va korrupsiya holatlarining oldini olish choralarini koʻrilgan. Masalan, Transport vazirligi tomonidan Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlarining avtobus qatnovlarida avtomatlashtirilgan toʻlov tizimi yoʻlga qoʻyilgan. Havo hamda temir yoʻl chiptalarini onlayn sotish tizimi yaratilgan.

Biroq oʻrganishlar ayrim eʼtibordan chetda qolib ketayotgan masalalar ham borligini koʻrsatdi.

Xususan, senatorlar tomonidan mazkur sohalarida moddiy-texnik taʼminot, tender va xaridlar jarayonida shaffoflikning past darajada boʻlgani, ayrim masʼul shaxslar tomonidan tadbirkorlardan pora olish, tender hujjatlarini qalbakilashtirish hamda tenderda sunʼiy gʻolib boʻlish kabi holatlar kuzatilgani tanqid qilindi. Ushbu masalalar boʻyicha vazirliklarga bir qator tavsiyalar berildi.

Muhokama yakunida qoʻmitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

JAMIYAT TAQDIRIGA DAXLDOR QARORLAR MUHOKAMASI

Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasida bir qator muhim masalalar muhokamasiga bagʻishlangan yigʻinlar boʻlib oʻtdi.

Dastlab “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonuni koʻrib chiqildi.

Muhokama davomida 2026-yil uchun Davlat byudjetida xarajatlarning ijtimoiy yoʻnaltirilganligi saqlab qolinganini alohida taʼkidlandi.

2026-yilda taʼlim va fan sohasi uchun 102,7 trln. soʻm, sogʻliqni saqlash sohasi xarajatlari uchun 48,9 trln. soʻm rejalashtirilmoqda.

Xususan, umumtaʼlim maktablarini darslik, mashq daftari va oʻquv metodik qoʻllanmalar bilan taʼminlash uchun 2026-yilda qariyb 2 trln. soʻm yoki 2025-yildagiga nisbatan 53 foiz koʻproq mablagʻ yoʻnaltirish nazarda tutilmoqda.

Senatorlar 2026-yilgi Davlat byudjeti ijrosi nazoratida mahalliy Kengashlarning tegishli doimiy komissiyalari bilan hamkorlik qilishga kelishib oldi.

Qoʻmita majlisida bolalarga koʻrsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash boʻyicha koʻrilayotgan choralar yuzasidan Sogʻliqni saqlash vazirligiga yuborilgan parlament soʻrovi natijalari ham dastlabki tarzda koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda bolalarga koʻrsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yangi bosqichga olib chiqish, ularga ilgʻor xorijiy tajriba asosida hamda zamonaviy diagnostika va davolash texnologiyalari yordamida tibbiy xizmat koʻrsatish boʻyicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, respublika boʻyicha 4 247 oʻrindan iborat 13 ta hududiy viloyat bolalar koʻp tarmoqli tibbiyot markazi tashkil etilgan.

Oʻtgan yilda respublika boʻyicha 18 yoshgacha boʻlgan bolalardan 11,2 mln. nafari (95,5 foizi) tibbiy koʻrikdan oʻtkazilib, 3,4 mln. nafarida (28,8

foizi) turli kasalliklar aniqlangan. Ularning 3,1 mln. nafari bilan (89,4 foiz) sogʻlomlashtirish ishlari oʻtkazilgan.

Bugungi kunda Raqamli sogʻliqni saqlash yagona platformasini yaratish va barcha axborot tizimlarini ushbu platforma bilan integratsiya qilish doirasida qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, tibbiyotda uchta koʻp in (birlamchi, ikkilamchi va respublika markazlari) oʻrtasida maʼlumotlar almashish imkonini beruvchi Yagona Tibbiyot axborot tizimi joriy etilgan.

Muhokama jarayonida shu narsa ayon boʻldiki, bolalarga koʻrsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash hamda sohaga ilm-fan yutuqlarini joriy qilish boʻyicha hal etilishi lozim boʻlgan ayrim masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, aksariyat birlamchi tizim shifoxonalarida bolalar jarrohlik boʻlimlari tashkil qilinmagan, shuningdek, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va hududiy bolalar koʻp tarmoqli tibbiyot markazlarining jarrohlik boʻlimlarida yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyotlari yoʻlga qoʻyilmagan. Bundan tashqari, bolalar statsionar davolanadigan davolash-profilaktika muassasalari hamda maktabgacha va maktab taʼlimi muassasalari tibbiyot xonalarini dori-darmon bilan toʻliq taʼminlash mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha zarur choralar koʻrilgan.

Muhokamalar yakunida shu kabi dolzarb muammoli masalalar yuzasidan qoʻmitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

IQTISODIY BARQARORLIK POYDEVORI

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-yildan buyon dekabr oyining har ikkinchi yakshanbasi Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligi xodimlari kuni sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. Bu esa barcha sohalar qatori, agar soha vakillarining ham mehnati qadr topganidan dalolat beradi.

Muhim sana

Qishloq xoʻjaligi, bu faqat yer va suv resurslaridan foydalanish emas, balki iqtisodiyot, jamiyat va ekologiya chegarasida joylashgan hayotiy strategik tizimdir. Oʻzbekiston uchun esa u tarixan xalqning turmush tarzi, mehnat madaniyati va milliy iqtisodiy barqarorlik poydevorini tashkil etib kelgan. Bugungi global raqobat sharoitida ushbu sohani zamonaviy talablarga mos ravishda transformatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirish va xalqaro bozorlarda munosib oʻrin egallash davlat siyosatining eng muhim yoʻnalishlaridan biriga aylangan.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning oʻzagida ilm va innovatsiya, shaffof boshqaruv, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, eksportbop mahsulot yetishtirish va inklyuziv rivojlanish kabi tamoyillar yotadi. Bugun Oʻzbekiston agrar siyosati koʻlamidagi oʻzgarishlar nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirish, balki xalqaro oziq-ovqat zanjirida ishonchli hamkor sifatida qatnashish maqsadini ham koʻzda tutmoqda.

Mamlakatimizda agrar tarmoqning iqtisodiyot, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashda tutgan oʻrni mustahkamlanib,

ichki va tashqi bozorlar ehtiyojlari asosida rivojlanib boradigan anʼanaviy qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishidan zamonaviy va samarali agrobiznesga oʻtishi qoʻllab-quvvatlanmoqda. Maqsad – qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirish, yangi texnologiyalarni keng joriy etishga katta eʼtibor qaratish.

Shu maʼnoda, joriy yil noyabr oyida qabul qilingan “Agrar sohani davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Prezident Farmoni ushbu yoʻnalishdagi amaliy ishlarining mantiqiy davomi boʻlish bilan birga, agrar siyosatda mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi.

Hujjat mohiyati va ahamiyatiga koʻra, mamlakat agrar salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan uchta ustuvor yoʻnalishni qamrab oladi. Sohani qoʻllab-quvvatlash tizimini raqamlashtirish birinchi yoʻnalishni tashkil etadi. Sir emas, yaqin-yaqingacha agrar sohada hujjat aylanmasi qondirish, balki xalqaro oziq-ovqat zanjirida ishonchli hamkor sifatida qatnashish maqsadini ham koʻzda tutmoqda.

Mamlakatimizda agrar tarmoqning iqtisodiyot, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashda tutgan oʻrni mustahkamlanib,

taʼminlanadi, korrupsiya ehtimoli keskin qisqaradi.

Ikkinchi yoʻnalish qoʻllab-quvvatlash turlarini optimallashtirishga qaratilgan boʻlib, bugunga kelib subsidiya va grant turlarining haddan ziyod koʻpligi ularni boshqarishni qiyinlashtirayotgandi. Hujjatda belgilangan masalalar mana shu qoʻllab-quvvatlash choralarini yagona standartga solish, qolaversa, samarasiz turlardan voz kechish hamda 2028-yilgacha ularning sonini 50 foizga qisqartirishni vazifa qilib qoʻydi. Bu oʻzgarishlar byudjet mablagʻlarini maqsadli yoʻnaltirish hamda ularning mahsuldorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega, albatta.

Uchinchi yoʻnalishda esa ishlab chiqarish hajmini kengaytirish nazarda tutiladi. Bunda 2030-yilga borib qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmi 20 foizga oshirilishi kutilmoqda. Bu nafaqat ichki talabni qondirish, balki eksportda raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Soha taraqqiyotini taʼminlashga xizmat qiladigan yana bir muhim omil – Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzurida Agrar sohada toʻlovlar agentligining tashkil etilishidir. Bu tuzilma agrar sohani davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi. Yaʼni bu yoʻnalishda markazlashgan boshqaruv sari qadam qoʻyildi. Eng qizigʻi, agentlikning vazifalari ilmiy yondashuv bilan shakllantirilgan. Xususan, davlat qoʻllab-quvvatlash choralarini yagona markaz orqali amalga

oshirish, samaradorlik koʻrsatkichlarini ishlab chiqish va ularni doimiy tahlil qilish, qoʻllab-quvvatlashning yangi turlarini ishlab chiqish hamda amaldagi samarasizlardan voz kechish, shuningdek, ariza berishdan toʻlovgacha qadar boʻlgan jarayonlarni 100 foiz raqamlashtirishni oʻz ichiga oladi. Bu model davlat qoʻllab-quvvatlashini tartibga solishda zamonaviy boshqaruv texnologiyalariga oʻtish, demakdir.

Dunyo miqyosida qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga boʻlgan talab tobora ortib, oziq-ovqat xavfsizligi hayotiy ehtiyoj kasb etayotgan bir sharoitda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar strategik ahamiyatga ega. Prezidentimiz rahbarligida sohani zamon talablari asosida isloh qilish, ilgʻor agroteknologiyalarni joriy etish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish hamda agrobiznesni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar qishloq xoʻjaligining barqaror va innovatsion rivojiga mustahkam zamin yaratmoqda. Buning natijasida yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligi kafolatlanib, ichki bozorni sifatl mahsulotlar bilan taʼminlash imkoniyati kengayadi. Eng asosiysi, qishloq xoʻjaligi xodimlari – fermer, dehqon, agronom va mexanizatorlar, umuman olganda, soha mehnatkashlarining nufuzi yanada ortadi.

Anvar TOʻYCHIYEV, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi raisi.

Joriy yilda Oʻzbekistondan Kuvaytga 50 tonnadan ortiq hoʻl va quruq mevalar eksport qilindi.



YANGI OʻZBEKISTON: TARAQQIYOT ODIMLARI



“Oʻzbekiston: uchinchi Renessans – taraqqiyot konsepti”:

BUGUNGI SIYOSATIMIZNING IJOBIY BAHOSI



Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi xorijlik ekspertlar tomonidan ijobiy baholanayotgani, jumladan, “Oʻzbekiston: uchinchi Renessans – taraqqiyot konsepti” kitobi bugungi siyosatimizni chuqur tahlil qilib bergani bilan alohida eʼtiborga molik ekanini taʼkidlagi.

– Mazkur asar yurtimizdagi islohotlar haqida atroflicha tasavvur beradi, – deydi Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi huzuridagi “Maʼrifat” targʻibotchilar jamiyati boʻlim boshligʻi Alisher Azimov. – Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan uchinchi Renessans gʻoyasining mohiyati umuminsoniy taraqqiyotga qaratilgan ochiq, maʼrifiy va inson qadriini ustuvor qoʻygan siyosat bilan chambarchas

bogʻliq. Kitob muallifi bu gʻoyaning ildizlarini oʻtmish merosi, ayniqsa, ajdodlarimiz qoldirgan ulkan maʼnaviy boylik bilan uygʻun holda talqin qilgani koʻpchilik ishtirokchilarda chuqur hurmat uygʻotdi.

Kitob taqdimotida bildirilgan fikrlar, Pokiston rasmiy vakillari tomonidan bayon etilgan samimiy munosabatlar shuni yana bir bor anglatdiki, Oʻzbekistondagi yangi islohotlar xalqaro maydonda ham katta qiziqish va eʼtibor bilan kuzatilmoqda.

Tadbirda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Kommunikatsiyalar departamenti rahbari – Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot kotibi Sherzod Asadov ishtirok etdi.

Gʻolib **BAHROMOV**
 (“Xalq soʻzi”).

MAMLAKATIMIZ ZAMONAVIY QIYOFASINI IFODALOVCHI ASAR

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tarixiy islohotlar, ochiqlik va yangilanish siyosati xalqaro hamjamiyat eʼtiborini tortmoqda. Bu oʻzgarishlar yurtimizdagi ichki jarayonlarga chuqur taʼsir koʻrsatib, chet el jamoatchiligi nigohida uning yangi qiyofasini shakllantirmoqda.

Pokistonlik jurnalist va yozuvchi Muhammad Abbos Xonning “Oʻzbekiston: uchinchi Renessans – taraqqiyot konsepti” nomli kitobi ham mamlakatimizdagi yangilanish jarayonlari, strategik maqsadlari va milliy rivojlanish gʻoyalarga bagʻishlangan muhim asarlardan biridir.

Aks sado

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan uchinchi Renessans gʻoyasi va amalga oshirilayotgan islohotlar dasturining mazmun-mohiyatiga bagʻishlangan ushbu asar nafaqat tadqiqotchilar, balki koʻplab siyosatchilar, ekspertlar va keng jamoatchilikning eʼtiboriga sazovor boʻldi.

Kuni kecha Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasida mazkur kitobning oʻzbek tilidagi nashri taqdimotida ishtirok etib, Yangi Oʻzbekiston fenomenining falsafiy qiyofasini yanada yorqinroq ochib bergan bu asarning maʼno-mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkoniyatiga ega boʻldik.

Umuman, ushbu tadbir juda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega boʻldi. Ayniqsa, mamlakatimizning soʻnggi yillardagi islohotlariga tashqi ekspert nuqtayi nazaridan berilgan obyektiv, puxta tahlillar bilan boyitilgan bu asarning oʻzbek tilida nashr etilishi – xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun nihoyatda qimmatli manba boʻldi, deyish mumkin.

Asarda jahon miqyosidagi davlat va siyosat arbobi Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan uchinchi Renessans poydevorini yaratish gʻoyasi insoniyatni hamkorlikka chorlovchi, tinchlik va muloqot kabi qadriyatlarga tayanadigan yirik oʻzgarishlar dasturi sifatida talqin etiladi. Kitobga soʻzboshini Pokiston Bosh vaziri Shabbaz Sharif yozgani esa davlatlarimiz rahbarlari va xalqlarimiz oʻrtasidagi ishonch va yaqin doʻstlikning yorqin ramzidir.

Kitobni mutolaa qilar ekanmiz, muallif uchinchi Renessansni uchta asosiy tamoyil – nizolar oʻrniga hamkorlik, jaholat oʻrniga ilm, adovat oʻrniga ishonch bilan izohlaganiga amin boʻlamiz. Bugungi keskin geosiyosiy vaziyat, urushlar, terrorizm, iqlim inqirozi fonida bu yondashuv faqat Oʻzbekiston uchun emas, butun mintaga va global hamjamiyat uchun dolzarb ahamiyatga ega ekanligi ayni haqiqat. Yurtimiz tashqi siyosatida yaxshi qoʻshnichilik, oʻzaro manfaatli hamkorlik, chegara va suv masalalarini muzokara yoʻli bilan hal qilishga qaratilgan saʼy-harakatlar aynan shu tamoyillarning amaldagi ifodasidir.

Uchinchi Renessans gʻoyasining yana bir muhim tamoyili – ilm va maʼrifat, muallif taʼkidlaganidek, bugungi islohotlarimizning markazida turgan eng ustuvor masala ekanligi chuqur mazmunga ega. Yangi Oʻzbekistonda bilim faqat laboratoriya

yoki texnologik yutuq emas, balki insonning dunyoqarashi, tanqidiy fikrlashi, masʼuliyatli qaror qabul qilish madaniyatidir. Mamlakatimizda taʼlim tizimini modernizatsiyalash, raqamli iqtisodiyot, sunʼiy intellekt, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan qarorlar aynan shu global gʻoyaning amaliy koʻrinishi sifatida namoyon boʻlmoqda.

Uchinchi tamoyil – adovat oʻrniga ishonch – bugungi dunyoda eng kamyob, lekin eng zarur kapitaldir. Kitobda ishonch faqat diplomatik munosabatlarni darajasida emas, davlat bilan fuqarolar, turli millat va konfessiyalar, jamiyat va hokimiyat oʻrtasidagi muloqot sifatida talqin etiladi. Yurtimizda ochiq muloqotlar, xalq qabulxonalari, parlament eshituvlari, jamoatchilik muhokamalari, korruptsiyaga qarshi ochiq platformalar – bularning barchasi ishonchni kuchaytirishga xizmat qilayotganini asar ruhida yana bir bor his etamiz.

Muallif fikricha, uchinchi Renessans – bu faqat tarixiy “uygʻonish” emas, balki kelajakni barpo qilishga qaratilgan global strategiya. Unda hamkorlik, bilim va ishonch uygʻunligi farovon va xavfsiz dunyo qurishning asosiy sharti sifatida koʻriladi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur asar oʻziga xos murojaatnoma – nafaqat Oʻzbekiston jamoatchiligiga, balki keng xalqaro hamjamiyatga qaratilgan chaqiriqdir. U bizni tarixni devor emas, balki xalqlarni bogʻlaydigan qoʻnir sifatida koʻrishga, kelajakni raqobat maydoni emas, hamkorlik maydoni sifatida tasavvur qilishga undaydi.

Aytish mumkinki, mazkur kitobning oʻzbek tilida nashr etilgani mamlakatimizda bu gʻoyalarni yanada kengroq muhokama etish, uchinchi Renessans konsepsiyasini nafaqat siyosiy doiralarda, balki keng jamoatchilik ongida chuqurroq anglashga xizmat qilishi, shubhasiz.

Ishonchimiz komilki, mazkur asar tahlilchilar, olimlar uchun yangi ilm va mulohazalar manbai boʻladi. Eng muhimi, Oʻzbekiston va Pokiston oʻrtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar yanada rivojlanishga xizmat qiladi. Bunday tadbirlar esa bilim almashish, fikrlar muloqotini kuchaytirish uchun gʻoyatda samarali boʻlib, jamiyatda ilm, maʼrifat va madaniyat yanada yuksalishiga zamin yaratadi.

Shahnoza **XOLMAHAMATOVA**,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Munosabat

5-dekabr kuni Toshkentda boʻlib oʻtgan yangi energetika quvvatlari va infratuzilma obyektlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarining qurilishini boshlashga bagʻishlangan tantanali marosimda ishtirok etgan xorijiy investorlarning mamlakatimizda yaratilgan sarmoyaviy muhit hamda energetika sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlarga bergan yuksak bahosidan qalbim quvonchga toʻldi. Ayniqsa, marosimda soʻzga chiqqan Saudiya Arabistonining “ACWA Power”



tomonidan qattiq nazorat qilinardi. Bunday sharoitda yirik infratuzilmaviy loyihalar uchun xorijiy hamkorlarni jalb etish, ularga qulay shartlar taklif qilish mushkul edi. Investorlar biz bilan ishlashdan choʻchigan. Endilikda Prezidentimizning oʻzi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga mablagʻ tikayotgan tadbirkorlarni ragʻbatlantirmoqda. Oʻzbekistonda fotoelektr va gidroelektr stansiyalari, shamol generatorlarini qurish uchun soliq imtiyozlari berildi. Shu bois mazkur yoʻnalishda eʼlon qilinayotgan tender natijasida dolzarb oʻnlab xorijiy kompaniyalar ishtirok etish istagini bildirayotgani bejiz emas.

Tadbirkor Muhammad Abunayan davlatimiz rahbariga murojaat qilar ekan, “Prezident Janobi Oliyarlari, butun dunyo sizdan investorlar bilan ishlashni va investitsiyalarni jalb qilishni oʻrganishi kerak. Bu nafaqat energetika sohasidagi loyihalarga, balki barcha tarmoqlarga, mamlakatlar iqtisodiyotining boshqa sohalariga taalluqli” deganida ming bora haq edi. Nega? Gap shundaki, elektr energiya taʼminoti dunyo miqyosida dolzarb. Xalqaro energetika agentligining maʼlumotiga koʻra, hozirgi kunda jahonda 1,3 milliardga yaqin aholi elektr energiya bilan taʼminlanmagan. 2,6 mlrd. odam ovqat tayyorlash uchun anʼanaviy yoqilgʻi – oʻtin, koʻmir va boshqalardan foydalanadi. 2035-yilga borib jahonda energiyaga boʻlgan talab yana 35 foizga oshishi taxmin qilinmoqda.

Eʼtiborlisi, Oʻzbekiston Markaziy Osiyo davlatlari qatorida birinchi boʻlib “yashil” energiyaga oʻtish harakatiga qoʻshildi. Mohiyatan olib qaraganda, olti yil avval qabul qilingan “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi yurtimizning “yashil taraqqiyot” sari yuz burganini anglatadi. Kezi kelganda aytmoqchimizki, 2030-yilga qadar elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish reja qilingan. Bu kabi xayrli maqsadlarga erishishimizga shubha yoʻq. Zero, Saudiya Arabistonining “ACWA Power”, Turkiyaning “AKSA”, “Cengiz

kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abdulla Abunayan davlatimiz rahbarining bu jarayonlardagi yetakchilik rolini samimiy eʼtirof etdi: “Siz amalga oshirayotgan ishlar, ularning natijalari bilan muqaddas Oʻzbekiston zaminida yashayotgan butun xalq faxrlanishi kerak. Chunki hamma rahbarlar ham, hamma davlatlar ham bunday natijalarni taʼminlashga, bunday chuqur islohotlarni amalga oshirishga qodir emas”.

Xorijlik investorning bu eʼtirofi qisqa davrda energetika sohasida yuz bergan va berayotgan oʻzgarishlar haqida yozishga undadi.

“YANGI OʻZBEKISTONNING ASOSIY ENERGIYA MANBAI”

Enerji, Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar”, Xitoyning “China Energy”, “Datang”, “Sinoma”, “Poly”, “CNTIC”, “Eagle Ray”, Fransiyaning “EDF”, “Volitalia”, “Total Energies”, Germaniyaning “Siemens Energy”, Qatarning “Nebras” kompaniyalari mamlakatimizda yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalarini amalga oshirayotgani natijasida soʻnggi yillarda energetika tizimiga 35 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi va 9 ming megavatt yangi quvvatlar ishga tushirildi. Natijada elektr ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 60 mlrd. kilovatt-soatdan joriy yilda 85 mlrd. kilovatt-soatga yetdi. Salkam 5 ming megavattli quyosh va shamol, 400 megavattli gidroelektr stansiyalari ishga tushirildi.

Bu yil jami generatsiya quvvatlaridagi ulushi 30 foizga yetkazilishi moʻljallanayotgan “yashil” energiya ishlab chiqarilishida xususiy sektor ham ishtirok etmoqda. Aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarida 2 ming megavattli kichik quyosh panellari oʻrnatilgan. Ularda shu yilning oʻzida qoʻshimcha ravishda 2 mlrd. kilovatt-soatga yaqin muqobil energiya ishlab chiqarildi. Shuningdek, hududlarda 69 ming kilometr elektr tarmoqlari, 14 mingta transformator va yuqori kuchlanishli podstansiyalar yangilandi. Shu maʼnoda, oʻtgan hafta ishga tushirilgan va yiliga 15 mingta transformator ishlab chiqaradigan “Angren energo” hamda 155 ta gidroagregat tayyorlab beradigan “Uzhydropower” korxonalari katta istiqbolga ega.

Hisob-kitoblarga koʻra, kelgusi olti yilda mamlakatimizda elektr energiyasiga boʻlgan talab hozirgi 83 milliarddan 120 mlrd. kilovatt-soatga oʻsishi kutilmoqda. Buni birinchi galda, qayta tiklanadigan energiya hisobidan qoplash rejalashtirilgan. Buning evaziga Oʻzbekiston energiya mustaqilligiga erishibgina qolmay, ortganini Yevropaga ham

eksport qilishni boshlaydi. Demak, Oʻzbekistonning quvvatli, energiyasi oʻsib boryapti. Va bu energiya manbai, Muhammad Abunayan taʼkidlaganidek, Prezident Mirziyoyev. Chunki energetika sohasidagi oʻzgarishlar aynan davlatimiz rahbarining chuqur oʻylangan islohotlari, strategik qararlari, xalq farovonligi yoʻlidagi saʼy-harakatlari natijasidir. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan buyuk gʻoyalar va amaliy qadamlar har bir sohaga, har bir insonga quvvat bagʻishlab, ulkan oʻzgarishlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Prezidentimiz nafaqat siyosiy yetakchi, balki butun xalq uchun ilhom manbai, erishilgan yutuqlarning yorqin timsolidir. Davlatimiz rahbarining qatʼiy irodasi va kelajakka boʻlgan ishonchi har bir fuqaroni oʻz oldiga katta maqsadlar qoʻyishga, Vatani ravnaqi yoʻlida jonkuyarlik bilan mehnat qilishga undamoqda. Bugungi kunda Oʻzbekistonda qamrab olgan yangilanishlar toʻlqini, zamonaviy bilimlar va texnologiyalarga intilish, ochiqlik va erkinlik ruhi – bularning barchasi Prezidentimizdan taralayotgan mana shu energiya tufayli.

Aslida, elektr taqchilligining asl sabablarini tugatish – murakkab texnik infraqurilma, eskirgan stansiyalarni yangilash, investitsiya yetishmasligi, samarasiz boshqaruv kabi muammolarni bartaraf etishning oʻzi boʻlmaydi. Yangi elektr stansiyalari qurish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, quyosh va shamol energetikasiga oʻtish, energiya portfelini diversifikatsiyalash orqali xavfni kamaytirish, xalqaro sheriklarni jalb etish, strategik loyihalar uchun kreditlar va grantlar, texnologiyalar hamda bilim almashinuvini yoʻlga qoʻyish, tarmoq boshqaruvi isloh qilish, qishloq va olis hududlarni elektrifikatsiya qilish davlat rahbaridan tinimsiz izlanishni, cheksiz energiyani talab etadi.

Bugun elektr taʼminotida uzilishlar keskin kamaydi, kichik va oʻrta biznesga qulay muhit yaratildi. Oʻquv va tibbiyot muassasalari ishining izchilligi yaxshilanib, bolalarning taʼlimi va bemorlar uchun xizmatlar sifati oshdi. Prezidentimiz rahbarligida energetika sohasida amalga oshirilgan islohotlar va kiritilgan investitsiyalar xalq hayotiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi.

Prezidentimizning ilhomlantiruvchi faoliyati Yangi Oʻzbekiston uchun nafaqat siyosiy yoʻnalish, balki yangi hayot energiyasidir. Bu energiya mamlakatni yanada yuksak choʻqqilarga yetaklab, xalqning farovon va baxtli hayotini taʼminlashga xizmat qiladi.

Sadritdin **TUROBJONOV**,
Toshkent davlat texnika universiteti rektori, akademik.



Qoʻbiz va oʻtov – YUNESKO roʻyxatida!

Qoraqalpoq xalqining asrlar osha yetib kelgan noyob madaniy merosini asrab-avaylash, uni yangi bosqichga olib chiqish hamda jahon miqyosida keng targʻib qilishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning Qoraqalpoqʻiston Respublikasiga tashrifi doirasida milliy musiqa madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan qoʻbiz yasash anʼanalari va jirovchilik sanʼatini zamonaviy va ilmiy-amaliy asoslarda rivojlantirish, yosh avlod ongiga chuqur singdirish, xalqaro miqyosda ommalashtirish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan edi.



Eʼtirof

Ushbu vazifani keng tatbiq etish maqsadida Prezident Administratsiyasi rahbari Said Mirziyoyeva rahbarligida yoʻlga qoʻyilgan tizimli va amaliy ishlar bugun oʻzining natijasini yaqqol koʻrsatdi.

Shu kunlarda, yaʼni 8 – 13-dekabr kunlari Hindistonning Nyu-Dehli shahrida YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish boʻyicha hukumatlararo qoʻmitasining 20-sessiyasi boʻlib oʻtmoqda. Mazkur sessiyada Oʻzbekiston Respublikasidan taqdim etilgan “Qoʻbiz va jirov jirovchilik sanʼati” (milliy) nomzodi YUNESKOning

zudlik bilan muhofazaga olinishi lozim boʻlgan nomoddiy madaniy meros elementlari roʻyxatiga kiritish toʻgʻrisidagi qarori bir ovozdan qabul qilindi.

Qoʻbiz va jirov jirovchilik sanʼatining YUNESKO roʻyxatiga kiritilishi uning tarixiy, maʼnaviy va madaniy qadriyat sifatidagi oʻrnining xalqaro miqyosdagi eʼtirofi hisoblanadi.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish boʻyicha hukumatlararo qoʻmitaning 20-sessiyasi Qoraqalpoqʻiston xalqi uchun muhim voqealarga boy boʻldi. Qoraqalpoq oʻtovi ham YUNESKOning nomoddiy madaniy meros roʻyxatiga rasman kiritildi.

Taʼkidlash joizki, “Qora uy” – qoraqalpoq xalqining bunyodkorlik madaniyati, uy-joy qurilishi va meʼmorlik bilimlari jamlangan, avloddan-avlodga oʻtib kelayotgan madaniy merosidir. “Qora uy” 6, 8, 12 qanotli boʻlib, boshqa xalqlar oʻtovlaridan ajralib turadi.

Qoraqalpoqʻistonning ikkita betakror madaniy qadriyati – qoʻbiz va oʻtov YUNESKOning nomoddiy madaniy meros roʻyxatiga kiritilgani barchamizga faxr-fifxor bagʻishlaydi.

Gʻayrat **OTAJONOV**
 (“Xalq soʻzi”).

Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasi Oʻzbekiston uchun ishlab chiqarilgan yuqori tezlikdagi poyezdlarning birinchi partiyasini joʻnatdi.

Natijaga asoslangan
boshqaruv tizimi
joriy etiladi

Poytaxtimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan anjuman o'tkazildi. Unda agentlikning mas'ul xodimlari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda jamoatchilik faollari qatnashdi.

Anjumanda ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvini zamonaviy va samarali mexanizmlar asosida tashkil etish, kadrlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonning mantiqiy davomi sifatida shu yil 6-dekabr kuni Prezidentimizning "Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Anjumanda mazkur Farmonning mazmun-mohiyati, ahamiyati va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari haqida ma'lumot berildi.

– Farmon asosida davlat idoralarda natijaga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish, mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solish, kadrlar bilan ishlashda shaffof va ochiq mexanizmlarni yo'lga qo'yish – muassasamiz zimmasiga yuklangan eng ustuvor vazifalardan, – deydi agentlik departamenti mudiri Ilhom Qurbonov.

Hujjatga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman (shahar)"larda kadrlar rotatsiyasi tizimi yo'lga qo'yiladi. Unga ko'ra tuman (shahar) hokimlari, ularning o'rinbosarlari va davlat organlari mahalliy bo'limla rahbarlari har 5 yilda boshqa hududga rotatsiya qilinishi belgilangan. Rotatsiya jarayoni "hrm.gov.uz" elektron platformasi orqali amalga oshiriladi.

Kelgusi yildan davlat organlarida xodimlarning korruptsiyaga qarshi barqarorlik darajasi maxsus diagnostikadan o'tkaziladi. Korruptsiyaviy xavf darajasi yuqori bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlar majburiy tarzda baholalanib, "past" natija olganlar ushbu lavozimda mehnat faoliyatini davom ettira olmaydi. Bu jarayon davlat xizmatini xolis, pok va samarali tashkil qilishga qaratilgan ta'kidlanadi.

Anjumanda jurnalistlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

Ulug'bek RO'ZIMATOV
("Xalq so'zi").

HAYOTI – IBRAT,
O'GITI – BEBAHO SABOQ

Nuroniylar – yurt faxri. Vatanimiz tarixi, taraqqiyotimizning turli bosqichlarida fidokorona mehnat qilgan va bugun keksalik gashitini surayotgan chog'ida ham ijtimoiy hayotdan uzoqlashmay o'zining boy tajribasi bilan yoshlar tarbiyasida faollik ko'rsatayotgan otaxon va onaxonalarimizni har qancha e'zozlasak, boshimizga ko'tarsak arziydi. Shu jihatdan olganda, ularni qadrlash, turmush sharoitini yaxshilash, salomatligini muhofaza qilish borasidagi keng ko'lami ishlar ayni yo'nalishdagi sa'y-harakatlarning tasdig'i bo'la oladi.

Ehtirom

– Viloyatimizda 272 mingdan ziyod keksa avlod vakillari istiqomat qiladi, – deydi O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi Namangan viloyati bo'limi raisi, senator Ikromxon Najmiddinov. – Ular asosiy ko'pchiligining kelajak avlod tarbiyasidagi o'rni har jabhada yaqqol sezilib turadi. Joylarda tashkil etilayotgan "Uch avlod uchrashuvi" va boshqa ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda kelajagimiz egalariga Vatanga sadoqat, oila mustahkamligi, mahalla hayotida faollik kuyg'ulari tobora chuqurroq singdirilayotir.

Ko'pni ko'rgan avlod vakillarining esa ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklarga javoban amaliy harakatlari, xususan, dunyoda yagona boshlangan mahalla instituti faoliyatidagi ishtiroki e'tiborga molik. Ayniqsa, "Bir nuroniylar – o'n yoshga mas'ul" loyihasi doirasida faol keksalarning kelajagimiz egalariga bosh qilib qo'yilishi o'z samarasini bermog'da. Namanganda ushbu nomdagi ko'rik-tanlovning respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan saralangan faol nuroniylar ishtirok etdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan joriy qilingan ushbu tamoyil asosida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tanlov ishtirokchilari tomonidan ko'rgazmali tarzda ko'rsatib berildi.

Yakunda Namangan viloyati sharafli munosib himoya qilgan Uychi tumanidagi "Bog'ko'cha" mahalla fuqarolar yig'iniining keksalar maslahati guruhi rahbari, faxriy pedagog Said Ubaydullayeva birinchi o'rinni egalladi. Keyingi faxrli o'rinlarga Toshkent shahri hamda Buxoro va Navoiy viloyatlari vakillari sauvor bo'lishdi. G'oliblarga jamg'arma diplomi va pul mukofoti voucherlari topshirildi.

Qudratilla NAJMIDDINOV
("Xalq so'zi").



Melioratsiya obyektlarini qurish va ular rekonstruksiyasi bo'yicha 197,3 km. uzunlikdagi ochiq, 100,02 km. yopiq gorizontall kollektor-drenaj tarmoqlarida, 19 ta gidrotexnika inshootida hamda 46 ta kuzatuv qudug'ida onlayn monitoring qilish qurilmalari o'rnatilgan. Bundan tashqari, 4 944 km. uzunlikdagi kanallarni tozalash, 5 264 dona gidrotexnika inshootini va 5 091 ta gidropostini ta'mirlash ishlari bajarilgan. Nasos stansiyalarining samaradorligini oshirish maqsadida Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi 157 ta nasos agregati hamda 166 ta elektrodvigatel yangisiga almashtirilgan.

Vazir qayd etishicha, sohada energiyadan oqilona foydalanish va ularning samaradorligini oshirish maqsadida nasos stansiyalariga 165 ta kondensator, 135 ta chastota o'zgartiruvchi qurilma, 752 kilovatt-soat quyosh panelarlari hamda 27 ta quyosh suv isitkichi o'rnatilgan. Natijada, joriy yilning o'tgan davrida nasos stansiyalari va tik quduqlarni ishlatish uchun tasdiqlangan limitga nisbatan 137,8 mln. kilovatt-soat elektr energiyasi tejallishiga erishilgan.

holat aniqlangani, Davlat byudjetiga 23 mlrd. so'm zarar yetkazilgani, o'rnatilgan "aqli" hisoblagichlarning yarmidan ko'pi axborot tizimiga ulanmaganini aytdi. Shuningdek, ayrim xususiy sheriklar tomonidan elektr energiyasini tejash evaziga daromad olish, aholi va fermerlarga suv yetkazib berishda uzilishlar yuzaga kelayotgani yuzasidan e'tirozlarini bildirdi.

Vazir ko'tarilgan barcha savollarga atroflicha javob berib, har bir masala bo'yicha qat'iy choralar ko'rilayotganini ma'lum qildi.

Deputatlar tizimida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy qilishni yanada kengaytirish, suv xo'jaligini qo'llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan byudjet mablag'larini o'z vaqtida o'zlashtirish hamda asosiy maqsadli ko'rsatkich va indikatorlarga erishish choralarini ko'rish yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarini berdi.

Majlisda Suv xo'jaligi vazirining axboroti ma'lumot uchun qabul qilindi va kun tartibidagi masala bo'yicha samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olindi.

Energiya ta'minoti
barqarorligi – ustuvor
vazifa

Majlisda Energetika vaziri J. Mirzamahmudovning "Energiya ta'minoti barqarorligini ta'minlash, aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda jadal sur'atlarda o'sib borayotgan iqtisodiyotimiz va aholining talab hamda ehtiyojidan kelib chiqib, energetika tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda sohaga 35 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi va 9 ming megavatt yangi quvvatlar ishga tushirildi.

Natijada elektr ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 60 mlrd. kilovatt-soatdan joriy yilda 85 mlrd. kilovatt-soatga yetdi. E'tibori jihat, salkam 5 ming megavattli quyosh va shamol, 400 megavattli gidroelektr stansiyalar ishga tushirildi.

Taqdim etilgan axborotga ko'ra, joriy yil yanvar – noyabr oylari davomida yoqilg'i energetika tarmog'ida jami 8,8 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalar, shundan elektr energetikasi bo'yicha 6,3 mlrd. dollar, "yashil" energiya loyihalariga 4,7 mlrd. dollar, neft-gaz sohasi bo'yicha 2,5 mlrd. dollar o'zlashtirilgan.

Shu bilan birga, 2025-yilda umumiy qiymati 40,5 mlrd. dollarlik 58 ta yirik loyiha ishga tushirilishi belgilangan. Ulardan jami quvvati 1 413 MVt bo'lgan 5 ta quyosh elektr stansiyasi, quvvati 752 MVtga teng 4 ta shamol elektr stansiyasi, quvvati 168 MVt bo'lgan 6 ta gidroelektr stansiyasi, quvvati 1167,3 MVtga teng 3 ta issiqlik elektr stansiyasi, quvvati 1 147 MVt bo'lgan 9 ta energiya saqlash



Aholi va tadbirkorlik subyektlaridan 150 turdagi ma'lumot va hujjatlarni talab etish bekor qilinishi natijasida ularning 22,7 mlrd. so'mdan ortiq mablag'lari tejallishiga erishilgan. 200 dan ziyod davlat xizmatlari bo'yicha ariza berish jarayonlari "3 qadam" tamoyili asosida soddalashtirilgan.

O'ziga o'zi xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish maqsadida 200 ga yaqin mahallalarda 7/24 tartibidagi interfaol kiosklar o'rnatilgan.

Vazirlik tomonidan korruptsiyaviy omillar kelib chiqishining oldini olish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatilishi ustidan nazorat qilish yo'nalishida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi vakolatli organlarda o'tkazilayotgan nazorat va boshqa tadbirlar natijasida shu yilning 9 oyida jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda jami 187 mingdan ortiq qonun buzilishi holatlari aniqlangan.

Sohada yo'l qo'yilayotgan umumiy qonunbuzilish holatlari o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 3 baravar, shundan muddat buzilishi 3,5 baravar, asossiz rad etish 2 karra, ortiqcha hujjat talab qilish 2 hissa kamayishiga erishilgan.

Adliya vazirligi O'zbekistonda davlat organlari ichida birinchi bo'lib "Cert International" xalqaro tashkiloti (Slovakiya) tomonidan vazirlikning korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ISO 37001:2016 xalqaro standartiga muvofiq deb baholalanib, xalqaro muvofiqlik sertifikatini olgani qayd etildi.

Majlisda sohada amalga oshirilayotgan ishlar bilan birga, bajarilishi lozim bo'lgan ayrim masalalar ham mavjudligiga e'tibor qaratildi. Xususan, 400 ga yaqin davlat xizmatlarining hali elektron shakliga o'tkazilmagani, ayniqsa, chekka va olis hududlarda infokiosklar yetarli emasligi fuqarolarning raqamli xizmatlardan to'liq foydalanishiga to'siq bo'lmoqda.

Shuningdek, davlat organlarining elektron axborot tizimlari to'liq integratsiya qilinmaganligi, ayrim idoralarda hujjatlar almashinuvi sekinligi va qayd etish jarayonlarida inson omilining yuqoriligi ortiqcha byurokratiyaga, ijro muddatlarining buzilishiga, fuqarolardan asossiz hujjatlar so'ralishiga, xizmatlarning sifati va tezkorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Muhokama davomida deputatlar tomonidan bir qator savollar o'rta ta tashlandi. Xususan, **O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi Javlon Abdullayev** vazir axborotida joriy yilning 9 oyida eng ko'p qonunbuzilish holatlari sog'liqni saqlash, qurilish, kadastir tashkilotlarida kuzatilgani keltirilganiga e'tibor qaratib, vazirlik tomonidan ushbu holatlarni keltirib chiqarayotgan omillar tahlil qilinyaptimi, degan savol bilan vazirga yuzlandi.

O'ZLiDeP fraksiyasi a'zosi Diyor Husanov davlat xizmatlarini ko'rsatishda vazirlik va idoralar bilan integratsiya jarayonlari haqida to'xtaldi. Ba'zi vazirlik va idoralarda bu jarayon sust davom etayotganini aytib, bu borada qanday choralar ko'rilayotgani bilan qiziqdi.

Adliya vaziri ushbu savollarga atroflicha javob berib, amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni bayon qildi.

Deputatlar tomonidan ushbu sohadagi yutuqlar e'tirof etilgan holda, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish, xizmatlari sifati va aholi qoniqlish darajasini oshirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda korruptsiyaviy holatlar kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan bir qator taklif va tavsiyalar berildi.

Majlisda Adliya vazirining axboroti

yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Suv resurslarini
boshqarish va irrigatsiya
sektorini rivojlantirishda
aniq chora-tadbirlar

Majlisda Suv xo'jaligi vaziri Sh. Hamroyevning "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025 – 2028-yillarga mo'ljallangan dasturining ijrosi, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish hamda qonunchilik hujjatlarini Suv kodeksiga muvofiqlashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi doirasida suv resurslaridan samarali foydalanish va suv xo'jaligi obyektlari muhofazasini ta'minlash, suv yetkazib berishda obyektlarni modernizatsiya qilish hamda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur ishlarni izchil davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025 – 2028-yillarga mo'ljallangan dasturi tasdiqlangan.

Axborotda keltirilganidek, sohani tartibga solishga qaratilgan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonun, Prezidentimizning 8 ta Farmoni, 14 ta qarori hamda Hukumatning 26 ta qaroridagi normalarni o'zida mujassamlashtirgan yaxlit normativ-huquqiy hujjat – Suv kodeksi qabul qilindi.

Suv kodeksida aholini, iqtisodiyot tarmoqlarini va ekologik tizimlarni suv bilan barqaror ta'minlash, suvlarni oqilona boshqarish va muhofaza etish, suvga doir munosabatlار



sohasida iqtisodiy mexanizmlarni, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hamda sohada davlatlararo hamkorlikni ta'minlash kabi muhim masalalar belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025 – 2028-yillarga mo'ljallangan dasturida belgilangan vazifa va topshiriqlarning ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilning o'tgan davrida daryolar va soylarda 4 ta gidrologik postni qurish va qayta tiklash hamda raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan uskunalar bilan jihozlash ishlari olib borilgan.

Majlisda ta'kidlanganidek, irrigatsiya va melioratsiya obyektlarida o'tgan davr mobaynida 564,9 km. uzunlikdagi kanallarni, 26,9 km. lotok tarmoqlarini, 32 ta gidrotexnik inshootni, sekundiga 47,2 metr kub suv chiqarish quvvatiga ega bo'lgan nasos stansiyalarini, 3,9 km. bosimli quvurlarni, 45,8 km. yopiq sug'orish quvurlarini, 12,7 km. uzunlikdagi dambalarni hamda 45 ta sug'orish quduqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilgan.

2030-yilgacha savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida aholi tomonidan to'lovlarni naqd pulsiz amalga oshirish
ulushini 75 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhif S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6